



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

---

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA DARS DAVOMIDA TURLI XIL DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATI

### Xolmirzaev Shavkat

*Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: Bobomurodov Erkin Hayitovich**

*Termiz davlat universiteti Falsafa fanlari doktori*

---

#### INFO:

Qabul qilindi: 22.03.2022

Ko'rib chiqildi: 24.03.2022

Chop etildi: 24.03.2022

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, didaktik o'yin, tafakkur, metod, mashg'ulot*

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlar tashkillashtirish zaruriyati, bu orqali bolalar tafakkur faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari, usullari, o'ziga xos tomonlari borasida so'z yuritiladi.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

---

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning ro'li beqiyosdir. Didaktik

o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik oyinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir ko'rsatadi.

«Hammamizga juda yaxshi malumki, boshlang'ich sinflardagi barcha fanlar bola qalbining oppoq daftari» ga yani bosh miya yarim sharlar po'stlog'iga o'chmas iz bo'lib yozilib qoladi» (O'tkir Hoshimov.).

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga talim –tarbiya berish sifatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borishning maqsad-vazifalari, mazmuni va metodlarini o'rganib borish, ilmiy pedagogik asoslarga tayangan holda olib borilishi, muammoning yeshilishi, o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga bog'liq. Bunda kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilan ularning bilish faoliyatini rivojlantirib borish, amaliy ko'nikma hosil etish vazifalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ish sinflarda o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirib, rivojlantirib borishda o'qituvchilarimiz ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanib, o'z darslarini qiziqarli etib tashkillashtirib o'tishlari zarur. Yosh avlodning shakllanish jarayonini ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta'lim- tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkul.

«Abdulla Avloniy» Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni hohlar ekan, unda insonni har tomonlama o'rganishi zarur» - deb bejiz aytmagan.

O'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi.

O'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi. O'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10, «Do'koncha»da 8—12 bola, «Narvoncha» da esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi

hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish diktanti» singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

O'yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o'quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo'lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o'yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. O'yinlarni bolalar jamoa bo'lib bajarar ekan, uning barcha a'zolari faol qatnashgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg'ulotda barcha o'quvchi bir maqsad yo'lida harakat qiladi. Hamma g'olib bo'lishga intiladi. Bunday holat har bir o'quvchining ma'suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o'quvchi o'z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto'g'ri javob bersa, bolalar oldida o'zini noqulay sezadi, ayrim hollarda o'zini-o'zi koyiydi. Keyingi o'yinlarga puxta hozirlik ko'radi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni ko'proq o'qishga chorlaydi. G'oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

«Qo'shningni top» o'yinida birinchi sinf o'quvchilari «O'nlik» mavzusidagi bir xonali sonlar ketma - ketligida har bir (1 va undan boshqa) sonning har ikkala qo'shnisini topish bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar.

«Do'konda» o'yini ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning «100 lik» ichida hisoblash ko'nikma va malakalarini mustahkamlash ta'limiy va iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan didaktik o'yindir.

«O'xshashlarini nomma-nom ayt», degan o'yinda to'rtinchi sinf o'quvchilari tekis geometrik figuralar ichida o'xshashlarini ajratib, ularning nomlarini aytish orqali geometrik figuralar haqidagi bilimlarning qanchalik to'g'ri va mustahkam ekanligini ko'rsatadilar. Masalan, stol ustidagi uchburchaklar, to'rtburchaklar, doiralar, yarim doira aylanalalar (yarim aylana), fazoviy figuralar va boshqa figuralar.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Boltayev B. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tarbiyasi.- "SamDU" nashriyoti .(o'quv qo'llanma) -2019 y. [1, 24-b]
2. Yaxshiyeva, Z. Z., Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Evaluation of the quality of education is studied on the basis of foreign experience. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 383- 385.
3. Yakhshieva, Z. (2020). Talabalarning mustaqil ta'lim olishida interfaol metodlarning roli. JSPI Scientific Publications Archive.
4. Solidjonov, D. (2021). MODERN EDUCATION AND USEFUL METHODS FOR TEACHING. Scienceweb academic papers collection.
5. Kulboyev, Z. Kh. (2020). Superconducting fullers and their application in biophysics. Enigma, (23), 155-159.
6. www.ziyonet.uz